

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY MEZONLARI

Mahamatov Muhammadkarim Erkin o'g'li

Marhamat tumani "Paxtakor" MFY da Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining ish bilan ta'minlanishiga oid mezonlar hamda bandlik masalalari atroflicha yoritilgan. Aholi bandligini ta'minlashda, qolaversa, ko'proq aholi qatlamini ish bilan band etishda bozor munosabatlaridagi muvozanat hamda bandlikning asosiy mezonlari haqida atroflicha taklif va mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: bandlik, oqilona bandlik, bozor munosabatlari, to'liq bandlik, mehnat daromadi, ijtimoiy ehtiyoj, samarali bandlik, inson resursi.

Bandlik va aholini ish bilan ta'minlash masalalari bir xil tushuncha bo'lib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi hamda fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatni anglatadi. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha kishilararo munosabatlarni bildiradi. Bandlik turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda yollanib ishlash bilan cheklanmay, ayni paytda tadbirkorlikni, o'zini ish bilan mustaqil ta'minlash (o'zicha bandlik)ni, shaxsiy tomorqa xo'jaligidagi ishni, uy xo'jaligida band bo'lish va bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanish, davlat va jamoat vazifalarini bajarishni, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida kunduzgi o'qish kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Aholi to'liq bandligi shakllanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

- Ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish;
- Ish joylarini ko'paytirish;
- Iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish;
- Mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash;
- Aholining mehnat daromadlarini ko'paytirish;
- Ishsizlikni kamaytirish.

Aholini ish bilan ta'minlashni tartibga solishda iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan bozorni boshqarish (tartibga solish) siyosati uch asosiy maqsadga erishishni talab qiladi:

- Tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirish va bo'shab qolgan hodimlarni qayta taqsimlash jarayonini jadallashtirish;

- Ishsizlarni mehnat jarayoniga tezlik bilan jalb qilish;
- Ish izlayotganlarning har birini mehnat bilan ta'minlash.

Davlat bandlik siyosati doirasida mehnat bozorini tartibga solishda bandlikka ko'maklashish jamg'armalarining o'rnini alohida e'tirof etmoq lozim. Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi harajatlarini shartli ravishda quyidagi yo'nalishlari bo'yicha qismlarga ajratiladi:

- Ishsizlik bo'yicha nafaqaga sarflanadigan mablag'lar, ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish, uzoq muddatli pensiyalar to'lash.
- Qayta tayyorlash va jamoat ishlariga sarflanadigan mablag'lar. Faol siyosatning mazkur shakli amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadi ya'ni bandlik sohasidagi davlat hizmari uchun majburiy hisoblanadi.
- Ma'naviy qo'llab-quvvatlashga, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa harajatlarga mo'ljallangan mablag'lar.

Bandlik to'liq va to'liqsiz shakllarda mavjud. To'liq bandlik amalda mehnatga qobiliyatli aholining 90 — 92 % band bo'lishini ta'minlaydi. Bozor sharoitlarida to'liq bandlik jamiyat darajasida tabiiy ishsizlikning bo'lishini ham bildiradi. To'liq bo'lmagan bandlik aksariyat hollarda yashirin ko'rinishga ega bo'lib, xodimlarni rasman band deb hisoblashni nazarda tutadi, amalda xodimlardan qisqartirilgan ish vaqti davrida foydalanishni anglatadi.

Ikkilamchi bandlik amalda o'rindoshlik bo'lib, xodimning qo'shimcha ish haqi topish uchun ish kuchini o'zi asosiy band bo'lgan korxonaga (asosiy ishdan bo'sh vaqtlarda) taklif etishini bildiradi. O'zicha bandlik (o'ziga ish topish) daromad manbai bo'ladigan faoliyatni mustaqil izlashni, davlatning turli darajadagi idoralari qo'llab-quvvatlashi yordamida doimiy yoki vaqtinchalik daromad olish uchun ish o'rinlari barpo etishni nazarda tutadi. O'zicha bandlik aksariyat hollarda kichik biznes ko'rinishiga ega bo'ladi va xodimlarning o'z tashabbuslari bilan turli iste'mol tovarlari tayyorlash va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yakka mehnat faoliyati bilan bog'liq.

To'liq va samarali bandlik tushunchalarini ham bir-biridan farqlamoq kerak. To'liq bandlik ishga muhtoj bo'lganlar va ishlashni xohlaganlarning barchasi ish bilan ta'minlangan holatni bildirib, ish kuchiga bo'lgan talab bilan ish kuchi taklifi o'rtasida muvozanat mavjudligini ifoda etadi. Samarali bandlikni esa ikki nuqtai nazardan: iqtisodiy nuqtai nazardan — inson resursidan eng oqilona foydalanish, ijtimoiy nuqtai nazardan — mehnatning inson manfaatlariga eng muvofiq kelishi jihatlaridan tavsiflash mumkin. To'liq bandlik bandlikni miqdor jihatdan, samarali bandlik esa sifat jihatdan tavsiflaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning bo'lmashligi hamisha to'liq va samarali bandlikka sharoit qoldirmaydi.

Agar taklif talabdan ortib ketsa, albatta ishsizlik paydo bo‘ladi, talab taklifdan va real ehtiyojlardan ortib ketgan sharoitlarda esa yashirin ishsizlik kelib chiqadi. Bandlik va ishsizlikni, ularni kerakli darajada saqlab turish maqsadlarida tartibga solishning asosiy mexanizmi bandlik xizmati ishini tashkil etish, kasbga tayyorlash va kasbga yo‘naltirish hisoblanadi. Aholining bandligi bilan ko‘maklashishga bog‘liq xizmatlar bandlik xizmati organlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bandlikning nodavlat xususiy harakterdagi tuzilmalari ham tashkil etilishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni. T.: "Mehnat" gazetasi. 1993, 1-oktabr.
2. Abdurahmonov Q. H. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: Mehnat, 2004
3. www.ziynet.uz
4. www.edu.uz